3

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘zbekiston davlat**
**konservatoriyasi rektori**
**__________ K.Urinbayev**
**2025 yil “29” __08__**

***Ro‘yxatga olindi: № BD 60211000-1.11***

# MUSIQIY TANQIDNING ILMIY ASOSLARI

## FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** *200 000 - San’at va gumanitar fanlar*

**Ta’lim sohasi:** *210 000 - San’at*

**Ta’lim yo‘nalishi:** *60211000 - San’atshunoslik: musiqashunoslik*

**TOSHKENT - 2025**

CamScanner yordamida skanerlangan

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>MTA1204</td><td colspan="2">O‘quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>4-5</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="3">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td colspan="2">Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari</td><td colspan="2">60</td><td>60</td><td>120</td></tr>
</table>

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

“Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari” fanining asosiy maqsadi - talabalarga musiqiy tarixiy jarayonini tanqidiy nuqtai nazardan baholash, madaniyat va san’at olami, ijodkor shaxs, madaniy tizimiga oid shakllarni ajrata olish, kelajagini ilmiy asosida prognozlashtirishni o‘rgatishdir. O‘z navbatida u bevosita mutaxassislikka oid fanlarni mukammal o‘zlashtirib olishlariga muayyan yordam ko‘rsatadi.

Fanning vazifasi – talabalar musiqiy tanqidning obyekti, mazmuni, uning o‘ziga xosligini, madaniyat sohasida tanqid ko‘rinishlari, madaniyat tanqidchiligi metodologiyasini va metodlari, asosiy tushunchalar, g‘oyaviy va estetik tamoyillarini o‘rganishdan iborat. Bunda talabalar quyidagi yo‘nalishlarda bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lganlarini namoyish etishlari zarur:

a) musiqiy tanqidning nazariy asoslarini bilish;

b) musiqiy- tanqidiy janrlar doirasi, tasnifi va tavsifini bilish;

v)musiqiy tanqidiy janrlarni yoza olish;

**II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlar)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi**

**IV-semestr.**

**1-mavzu: “Musiqiy tanqid asoslari” fanining maqsad va vazifalariga oid manba va nashrlarni o‘rganish.**

Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari faninig maqsadi – talabalarda yuqori madaniyatli jamiyatini qurishda tanqidiy nuqtai nazarlar muhimligi, bu sohada zarur bilimlarni egallashlari, madaniy jarayonlarini ko‘rib chiqishda tahliliy fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish. Etakchi musiqa tanqidchilarining asarlari sharhi .

**2- mavzu: Badiiy va musiqiy tanqid (tanqidning nazariy masalalari) OAV tizimi asosida o‘rganib chiqish** .

Musiqiy tanqid metodologiyasi va nazariyasi. Musiqiy tanqid badiiy tanqidning bo‘lagi. Umumiy tanqidchilik bilan chambarchas bog‘liq tomonlari. “Tanqid” so‘zining ma’nosi. Badiiy tanqid uslublari haqida. Musiqiy tanqid-badiiy tanqidning bir bo‘lagi. Musiqiy tanqid vazifalari. Ijodiy faoliyatning turli ko‘rinishlari - tanqid obyektlaridir.

olib borishida ijtimoiy fikrlarning ahamiyati.

**3-mavzu: Bahs-badiiy tanqidning yetakchi uslublaridan biri.**

Bahs-badiiy tanqidning yetakchi uslublaridan biri. Ortodoksallik-tanqid yo‘lidagi to‘g‘on. Tanqidda an’ana va zamonaviylik masalasi. Tanqidda vorislik an’anasi. Asosiy xususiyatlari (tezkorlik, hozirjavoblik, ijtimoiy-qarashlar aniqligi, nazariy-g‘oyaviy tayanchi, yuqori mazmundorligi, estetik baholash mezonlari). Ma’naviy qadriyatlar va musiqiy tanqid.

**4- mavzu:Musiqa tanqidchi faoliyati .**

Yuqori professionallik, dunyoqarash kengligi, fikrashni assotsiativligi, badiiy xodisalarni ichki qonunlarini tushunish, tarixiy va estetik tahlilning yaxlitligi, xaqqoniylik, isbotlarning asosligi, prinsipiallik va sezgirlik, rostguylik, fuqarolik va axloqiy burch , mazmunlik va ilmga asoslab baho berishi, konkretlik va umumiylikka xarakat qilish kabi tomonlar- musiqiy tanqidchi faolyaitida boshchilik qilishi. Musiqa tanqidchi faoliyat olib boruvchi sohalar sharhi. Musiqa tanqidchiligining ommaviy axborot vositalardagi o‘rni va mavqei. Kasbiy darajasiga jovob beruvchi mutaxassislarni tayyorlash masalasi.

**5- mavzu:Musiqiy - tanqidning madaniyatdagi o‘rni.**

Turli tarixiy shart – sharoitlarda musiqiy tanqid san’atning asl vazifasini idrok etib, badiy ijodiyot masalalarini tushunib yoritish, insoniyatning yuksak gumanistik g‘oyalari sari yetaklab, unga hizmat qilishga intilgan. Bugungi kun zamonaviy tanqidning madaniyat rivoji va taraqqiyotidagi maqsadi va vazifalari. Zamonaviy musiqiy tanqidning ekologik funksiyasi. Jahon musiqiy tanqidchi va jurnalistikaning vazifalari

**6 -mavzu:Musiqiy- tanqidiy janrlarning vazifasi**

Musiqiy-tanqidiy janrining xilma-xilligi. Tasniflanish sabablari: musiqiy janrlarni ko‘pligi, oldiga qo‘yilayotgan ma’lum maqsad va vazifalar, nashr tashkilotining xarakteri bilan belgilanishi.Musiqiy janrlarni nashriy tavsifi bilan o‘zaro aloqadorligi.Musiqiy tanqidchi va taqrizchi haqida. Musiqiy-tanqidiy asarlarning yozma uslubi. Maqola janr sifatida. Ko‘pincha nashrgaa chikuvchi barcha materiallar maqola nomi bilan ataladi.Shu nuqtai nazardan maqolalarni turlarga ajartilishi: maqola-tasavvur muammoli maqola– munozarali maqola,–ko‘ngil ochar maqola,– maqola-munosabat,– mualliflik maqola.

**7- mavzu: O‘zbekistonda musiqiy tanqidiy janrlari rivoji**

O‘zbekistonda musiqiy tanqid va jurnalistika sohasini rivoji. Sharq va G‘arb musiqiy tafakkur orasida farq, tahlillar, izohlar. XIX asr ohiri - XX asr boshlarida O‘zbekiston musiqiy tanqidi. O‘zbekiston musiqa tanqidi bosib o‘tgan yo‘li moboynida deyarli mavjud bo‘lgan barcha tanqidiy janrlar o‘zlashtirildi( taqriz, intervyu, portret, anons, muammoli maqola va b. ). Biroq ularning orasida axborot beruvchi gurux maqolalar salmoqli qismini tashkil etishi. Kitob nashr O‘zbek musiqashunosligi,

san’atshunosligida mavjud muammolar, mavjud salohiyatlardan etarlicha yoki kam foydalanilayotganligi lari va konsertlarga bo‘lgan analitik fikr - mulohazalar xususida.

**Oraliq nazorat.**

O‘tilgan mavzular bo‘yicha oraliq nazorat og‘zaki so‘rovlar, testlar va insholar shaklida o‘tkaziladi:

Badiiy va musiqiy tanqid haqida tushunchalarga ega bo‘lish.

Musiqiy tanqidning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilash.

Musiqa tanqidchi faoliyatining maqsad va vazifalarini aniq bilish .

Musiqiy tanidning janrlari va mamlakatimizda ularni rivojlanishi holati hususida trasavvurlarga ega bo‘lish.

**8- mavzu: Axborot beruvchi janrlar.**

Axborot beruvchi janrlarning maqsad va vazifalari. “Anons” - axbarot beruvchi janr. Uning vazifalari (m usiqiy xodisa haqida ma’lumot berib, uni birgalikda o‘tkazishni chorlovchi maqola turi).«Annotasiya»- kitob, qo‘llyozma, monografiya, maqola, patent, fil'm va boshqa nashrning qisqacha mazmuni va tavsifi. «Xronika» - voqeyliklarni tartib ravishda namoyon qilish (musiqiy xayot xronikasi, xronikali chizg‘ilar, xronikali sharx). Janrning axborot beruvchi xarakteri (dalillarni konstatasiyasi).

**9- mavzu: Tahliliy janrlar.**

Tahliliy janrlar maqsad va vazifalari. “Taqriz” - ilmiy, badiiy-adabiy tanqid turi bo‘lib tahlil va baholash vazifasini bajaradi. Og‘zaki va yozma turlari. Taqriz obyektlari (turli konsertlar, spektakllar, radio va tele ko‘rsatuvlar, kitob yoki nota nashrlari, ijro uslubi, talqinlar. yangi audio, CD-albom va yozma likobchalari va b.) Xajman katta bo‘lmagan, ko‘pfunksional opus. Axborot beruvchi, ta’lim-tarbiya, ma’rifatchilik funksiyalari. “Intervyu” - gazeta-jurnal publisistikasining janri o‘rnida matbuot xodimi (jurnalistning) san’at namoyondasi (ijrochi, kompozitor, dirijyor, rejissyor, xonanda, artist, musiqashunos, xoreograf va b.lar) bilan ma'lum masala bo‘yicha o‘tkazgan suhbat turi. Uning savol-javob shakli. «Suhbat» (munozarali suhbat) - intervyu janriga yaqin bo‘lib bunda ikkita yoki bir nechta suhbatdoshlar ishtrok etishini nazarda tutadi. Jurnalist tamonidan suhbat ishtrokchilarini individualligini ochib berish mohiyati. “Muammoli maqola”- ma’lum murakkab, ziddiyatli vaziyat yoki xolatni o‘rganishga bag‘ishlanadi.Muammoga baxo berilib uning paydo bo‘lish ildizlari, ularni yechish yo‘llari belgilanadi. Ko‘pincha muammoli maqola madaniyat va san'atning jiddiy maslalarni qamrab olib “xayotdan olinadi”. Muammoli maqola matnida ma'lum m uammoni yechish borasida samarali yo‘llar ochib beriladi

**10- mavzu: Badiiy-publitsistik janrlar.**

Badiiy-publitsistik janrlarning maqsad va vazifasi . “Feleton” - badiiy publitsistik janr. Ijtimoiy xayot,musiqa olamidagi masalalarini satira va yumor vositasi bilan, ya’ni

ijtimoiy kulgi asosida yoritadi hamda ijtimoiy tanqid uchun xizmat qiladi. "Musiqiy ocherk" - badiiy adabiyotning janrlaridan biri. Ocherk oʻzining hozirjavobligi, ishonarliligi, haqiqiy hayotda roʻy bergan voqealarni ifodalash, hujjatlarga asoslapganligi bilan ajralib turadi. Esse – bu maʼlum bir voqea yoki masala boʻyicha individual taassurot va fikrlarni ifodalovchi kichik hajmli va erkin kompozitsiyali nasriy asar boʻlib, mavzuni aniq yoki toʻliq talqin qilishga daʼvo qilmaydi.

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. Oʻtilgan mavzular boʻyicha bajarilgan va egallagan bilimlarni baholash:

Musiqiy tanqidning jamiyatda tutgan oʻrni va ahamiyati, maqsad va vazifalarini bilish.

Musiqiy tanqidiy janrlar va ularning turlari , tabiati haqida tasavvurga ega boʻlish .

Axborot beruvchi, tahliliy va badiiy- publitsistik janrlarning maqsad va vazifalari va har bir janrning yozma ( nashriy) va ogʻzaki shakllarini oʻziga hos tomonlarini bilish.

**V-semestr.**

**11- mavzu: Musiqiy tanqid tarixidan: Oʻzbekistonda XIX asr oxiri- XX asrda musiqiy tanqid va jurnalistika tamoyillari.**

Oʻzbekistonda musiqiy tanqid va jurnalistika sohasini rivoji. Sharq va Gʻarb musiqiy tafakkur orasida farq, tahlillar, izohlar. Furqat va Muqimiy, Hamza, Fitrat, Choʻlpon va Zafariylar Yevropa, Sharq, xususan oʻzbek musiqasi haqida.

Keyingi asrlar musiqiy tanqidi-badiiy tanqid va jurnalistika, hamda zamonaviy publitsistika bilan qiyoslash.

**12- mavzu: Zamonaviy Oʻzbekiston musiqa tanqidi.**

Oʻzbekiston musiqiy tanqidi bugungi kuni. Oʻzbekiston musiqa tanqidi bosib oʻtgan yoʻli moboynida deyarli mavjud boʻlgan barcha tanqidiy janrlar oʻzlashtirildi( taqriz, intervyu, portret, anons, muammoli maqola va b. ). Biroq ularning orasida axborot beruvchi gurux maqolalar salmoqli qismini tashkil etishi. Kitob nashr Oʻzbek musiqashunosligi, sanʼatshunosligida mavjud muammolar va salohiyat

**13- mavzu: Musiqiy-tanqidiy janrlar rivoji.**

Turli tarixiy shart – sharoitlarda musiqiy tanqid sanʼatning asl vazifasini idrok etib, badiy ijodiyot masalalarini tushunib yoritish, insoniyatning yuksak gumanistik gʻoyalari sari yetaklab, unga hizmat qilishga intilgan. Bugungi kun zamonaviy tanqidning madaniyat rivoji va taraqqiyotidagi maqsadi va vazifalari. Zamonaviy musiqiy tanqidning ekologik funksiyasi. Jahon musiqiy tanqidchi va jurnalistikaning vazifalari

**14-mavzu: Musiqiy-tanqidiy janrlar: Annotatsiya, Anons, Xronika.**

Axborot beruvchi janrlarning maqsad va vazifalari. «Anons» - axbarot beruvchi janr. Uning vazifalari (m usiqiy xodisa haqida ma'lumt berib, uni birgalikda o'tkazishni chorlovchi maqola turi).«Annotasiya»- kitob, qo'llyozma, monografiya, maqola, patent, fil'm va boshqa nashrning qisqacha mazmuni va tavsifi.

«Xronika» - voqeyliklarni tartib ravishda namoyon qilish (musiqiy xayot xronikasi, xronikali chizg'ilar, xronikali sharx). Janrning axborot beruvchi xarakteri (dalillarni konstatasiyasi).

**15-mavzu: Musiqiy-tanqidiy janrlar: Taqriz va uning turlari**

Tahliliy janrlar maqsad va vazifalari.«**Taqriz**» - ilmiy, badiiy-adabiy tanqid turi bo'lib tahlil va baholash vazifasini bajaradi. Taqriz ob'ektlari (turli konsertlar, spektakllar, radio va tele ko'rsatuvlar, kitob yoki nota nashrlari, ijro uslubi, talqinlar. yangi audio, CD-albom va yozma likobchalari va b.) Taqrizning og'zaki va yozma turlari.

**Oraliq nazorat.**

O'tilgan mavzular bo'yicha oraliq nazorat og'zaki so'rovlar, testlar va insholar shaklida o'tkaziladi:

O'zbekistonda XIX asr oxiri- XX asrda musiqiy tanqid va jurnalistika rivojlanishi va zamonaviy bosqich musiqa tanqidi haqida tasavvurga ega bo'lish.
Musiqiy-tanqidiy janrlar :Annotatsiya, Anons, Xronika va Taqriz janlarining tavsifiy jihatlari, maqsad va vazifalarini bilish va bir biridan ajratish.

**16- mavzu: Musiqiy-tanqidiy janrlar: Tanqidiy maqola**

«Tanqidiy maqola»- ma'lum murakkab, ziddiyatli vaziyat yoki xolatni o'rganishga bag'ishlanadi.Muammoga baxo berilib uning paydo bo'lish ildizlari, ularni yechish yo'llari belgilanadi.Ko'pincha muammoli maqola madaniyat va san'atning jiddiy maslalarni qamrab olib "xayotdan olinadi".Muammoli maqola matnida ma'lum m muammoni yechish borasida samarali yo'llar ochib beriladi Kam foydalanilayotganligi.va b. Xorijiy mamlakatlarda yoshlar orasida musiqiy tanqidning o'rni.

Ijodiy portret janrining -malum ijodkor shaxsni faoliyati yoruvchi monografik maqola turi (ijrochi, ijodkor). Uni taqrizdan farqi. Portret turlari

**17-mavzu: Musiqiy-tanqidiy janrlar: ijodiy portret.**

Ijodiy portret janrining -malum ijodkor shaxsni faoliyati yoruvchi monografik maqola turi (ijrochi, ijodkor). Uni taqrizdan farqi. Portret turlari

**18-mavzu: Ijodkor shaxs, jamiyat va musiqiy tanqid.**

Ijodkor inson, shu jumladan musiqachi toifasidagi odamning vujudga kelishi. Uning turli tarixiy davrlarda tutgan o'rni. Musiqa ijodi bilan kasb sifatida mashg'ul bo'lgan insonlarning tanqidga munosabati. O'zbekistonda ijodkorlikni ravnaq topishiga amalga oshirilayotgan ishlar.

O'zbekistonda musiqiy tanqid va jurnalistika sohasini rivoji. O'zbek musiqashunosligi, san'atshunosligida mavjud muammolar, mavjud salohiyatlardan

**19-mavzu: Hozirgi zamon musiqiy tanqid va jurnalistika muammolari.**

Zamonaviy musiqiy tanqidning ekologik funksiyasi. Jahon musiqiy tanqidchi va jurnalistikaning vazifalari. Musiqva tanqidchiligining ommaviy axborot vositalardagi o'rni va mavqei. Kasbiy darajasiga jovob beruvchi mutaxassislarni tayyorlash masalasi.

**20- mavzu: Jurnalistikada etika masalalari.**

Zamonaviy jurnalist shaxsi xususida (intellektual duneqarashi, ijodiy kamrovining kengligi, ichki va tashqi madaniyati, qarashlarning qattiyligi, tafakkuri). Kasbiy va insoniy e'tiqod. Jurnalistikada etika

**Yakuniy nazorat.**

Yakuniy nazorat. O'tilgan mavzular bo'yicha bajarilgan va egallagan bilimlarni baholash

Musiqiy tanqidning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati, maqsad va vazifalarini bilish.

Musiqiy- tanqidiy janlar (Annotatsiya, Anons, Xronika, taqriz va unung turlari, muammoli maqola m ijodiy portret ) tavsifini bilish

Hozirgi zamon musiqiy tanqid masalari va musmmolari yoritish .

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

***(Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim)*** *o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)*

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi (4-semestr):

1. Anons yozish
2. Annotasiya yozish
3. Taqriz va uning turlari: maqolaga taqriz
4. Taqriz va uning turlari: simfonui konsertga taqriz
5. Taqriz va uning turlari: sahnaviya asarga taqriz

5- semestr amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1.Intervyu yozish
2. Muammoli intervyu yozish
3. Intervyu -portret yozish
4.Ijodiy portret yozish
5.Muammoli maqola yozish

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi (4-semestr):

1.Musiqiy tanqidning nazariy masalalari
2.Musiqiy-tanqidiy janrlar tavsifi (ogzaki v a yozma turlari)
3 Axborot beruvchi janrlarning tavsifiy qirralari
4. Tahliliy janrlar va ularning tavsifi
5. Badiiy-publitsistik janrlar tavsifi

5- semestr seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:
1.MDX musiqaga oid jurnallardagi maqolalarni tahlil qilish va o' rganish
2.Ilmiy to'plamlarda musiqaga oid maqolalarni tahlil qilish
3.Ommaviy axborot tizimida musiqaga oid maqolalarni tahlil qilish
4. Zamoniy musiqa madaniyati va yoshlar o'rtasida tanqidning ahamiyati
5.Musiqiy tanqid muammolari

## III. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, re'etitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

## IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ish televideniye, radio, ommaviy matbuotlarga maqolalar, dasturlarni tayyorlash va yozish jarayonida bilimlarni o'zlashtirib olish nazarda tutiladi

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Filarmonik konsert turlariga taqriz;
2. O'zbekiston musiqa tanqidchiligi sohasi muammoalari;

| | |
|---|---|
| | 3. Ijodiy portre janri va uning o'ziga xosligi<br>4. Romantik kompozitorlarning tanqidiy faoliyati<br>5. Rus musiqa tanqidchiligi namoyandalari<br>6. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'zbekiston musiqiy tanqid rivoji<br>7. Xozirgi zamon musiqiy tanqid va jurnalistika muammolari |
| | **V. Kurs ishi**<br>Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>**1**.Musiqiy tanqidning nazariy masalalari<br>2.Bahs-badiiy tanqidning yetakchi uslublaridan biri.<br>3. Musiqa tanqidchilari faoliyati<br>4. OAB tizimida musiqiy tanqid<br>5. Musiqiy tanqining muammolari ( nashriy matbuot o'rganish asosida)<br>6.Musiqiy tanqid turlari.<br>7.Yozma musiqiy tanqidiy ijod namunalarni yozish va konikma o'rtirish<br>8.Musiqiy tanqidni madaniyatdagi o'rni .<br>9.Jurnal va to'plamlarda musiqiy tanqidiy qarashlar<br>10.Axborot beruvchi janrlar<br>11.Tahliliy janrlar<br>12.Badiiy-publitsistik janrlar<br>13.Ijodiy portret janrni<br>14.Muammoli maqola janri<br>15.Intervyu janri<br>16. «Musiqa» jurnali maqolalarni tahlil qilish va o'rganish<br>MDX musiqaga oid jurnalLardagi i maqolalarni tahlil qilish va o'rganish |
| **3.** | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br><br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba**:**<br>• musiqiy tanqid fanining maqsadi, janr va turlarini ***bilishi kerak****;*<br>• tanqidchilik janrlarga oid anons, annotatsiya, xronika, ijodiy portret, muammoli maqola, taqriz, muammoli maqola kabi janrlarni yozish bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak****;*<br>• musiqiy tanqid sohasining dolzarb masalalar va muammolarini bilishi va ulardan foydalana olishi ***malakalariga ega bo'lishi*** **kerak**. |
| **4.** | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• yakka va guruhli taqdimotlar qilish;<br>• ogzaki va yozma tanqidiy janrlar tahlili;<br>• jonli ijroni tahlili qilish;<br>• musiqiy - tanqidiy nashrlar va OAV faolliyatini tahlil qilish. |

| | |
|---|---|
| **5.** | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **IX.Asosiy adabiyotlar**<br>1.Бронфин Е. О современной музыкалъной критике. – М., 1977.<br>2.Гульзарова И. Методология музыкальной критики (учебник) – Т,<br>3.Гульзарова И. Методология музыкальной критики (учебное пособие). – Т., 2020.<br>4. Гульзарова И. Музыкальная жизнь Узбекистана в годы независимости (учебное пособие). – Т., 2012.<br>5.Касымходжаева С., Хамидова М. Научные основы музыкальной критики<br>(история становления и развития узбекской оперы в журнально-газетных публикациях 1920-1940- х годов) ( учебное пособие) -Т, 2021.<br>6.Курышева Т. Музыкальная журналистика и музыкальная. Учебное пособие-М, Владос – Пресс, 2007<br>7.Плунгян В. Молодому поколению от музыкального критика. - Т.,2011.<br>8.Плунгян В. О методике воспитания музыкальных журналистов. – Т., 2010.<br>9.Памяти Соллертинского. Воспоминая, материалы, исследования – Л., 1974.<br>10.Соллертинский И. Исторические этюды. – М, 1963.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.<br>2.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 32 b.<br>3.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. - T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017. 32.<br>4.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)<br>5.Головянц Т, Мейке Е. Композиторы и музыковеды Узбекистана (справочник) – Т, 2018.<br>6.Гульзарова И. Баходир Салихов – исполнитель и педагог. – Т., 2008. |

7.Гульзарова И. Галина Мельникова. Живой символ эпохи. – Т., 2020.
8.Гульзарова И. Геннадий Вергилесов – солист, ансамблист и педагог. – Т., 2008.
9.Гульзарова И. Коркмас Мухитдинов. Узбекский «Орфей». – Т., 2012.
10.Гульзарова И. Музыка и критика: Вера Плунгян. – Т., 2020.
11.Гульзарова И. Фирудин Сафаров. Титан оперной сцены. – Т., 2013.
12.Гульзарова И. Эльдар Азимов. Дирижёр с именем. – Т., 2014.
13.Гульзарова И. Орзу Азимова.Либретто жизни –Т., 2023.
14. Гульзарова И Диларом Саидаминова. Жизнь в гамме звуков. – Т., 2019.
15.Матякубов О. Додекограмма – Т., 2005
16.Никольская О. Тамара Аванесовна Головянц – человек, влюблённый в музыку и жизнь. – Т., 2023.
17. Плунгян. С. Юдаков в воспоминаниях современников – Т.,2003
18.Плунгян В. К вопросу индивидуальной музыкально-книжной классики– Т., 2016
19.Плунгян В. Современные аспекты и методические подходы в изучении творчества Бетховена –Т., 2007
20.Плунгян В. Соната моей жизни – Т., 2009.
21.Петренко Т. Интервью замечательных людей- Т., 2021.
22.Страницы истории государственной консерватории Узбекистана. Тухтасин Гафурбеков – Т., 2024
23.Страницы истории государственной консерватории Узбекистана . Наталья и Феликс Янов-Яновские – Т., 2024
24.Страницы истории государственной консерватории Узбекистана. Эльдар Азимов – Т., 2025
25.Сулеман Юдаков Музыка на все времена.( сост. Плунгян В., Бабаев Б. ) – Т., 2016.
26.Турсунова Г. Карим Зокиров ва унинг сулоласи XX аср Ўзбекистон мусиқа маданияти кесимида – Т., 2020.
27.Турсунова Г., Рустамова Ш. ЎзДК “ Мусиқа тарихи ва танқиди кафедраси илмий-педагогик фаолияти –Т., 2022.
28.Шахиди. Т. Времён контрасты – М, 2014.

**Axborot manbalar:**

1 http://www.youtube.com
2. http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa
3. www musika uz
4. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami

| | |
|---|---|
| **7.** | **Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» 08 dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>Tursunova G.A– O'zDK "Musiqa tarihi va tanqidi" kafedrasi professori, s.f.d.<br>Gulzarova I.S.- O'zDK "Musiqa tarihi va tanqidi" kafedrasi professori. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Tursunova R.A– O'zDK "Musiqa tarihi va tanqidi" kafedrasi dosenti, san'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori ( PhD)<br>Abdullaev R. -O'z.Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi raisi, professor |



CamScanner yordamida skanerlangan